



<https://orcid.org/0009-0006-1118-3465>

DOI:<https://doi.org/10.5281/zenodo.18722777>

**EKOLOGIK SOLIQLARNI FISKAL VA RAG'BATLANTIRUVCHI
FUNKSIYALARINING YASHIL IQTISODIYOTNI
MOLIYALASHTIRISHDAGI O'RNI**

*Jamoat xavfsizligi universiteti,
Iqtisodiy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD),
Usmonov Shavkatjon Shukurovich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda ekologik soliqlarning tutgan o'rni va ularning ikki muhim funksiyasi – fiskal va rag'batlantiruvchi funksiyalari tahlil qilingan. Ekologik soliqlarning nazariy asoslari, ularning turlari va iqtisodiy mexanizmlari yoritilgan. O'zbekiston misolida ekologik soliqlar tizimining bugungi holati, ularning budjet daromadlaridagi salmog'i va yashil loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki o'rganilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik soliqlar, fiskal funksiya, rag'batlantiruvchi funksiya, moliyalashtirish, uglerod solig'i, atrof-muhit ifloslanishi, "yashil" budjet, O'zbekiston.

Аннотация: В данной статье анализируется роль экологических налогов в финансировании зеленой экономики и их две важные функции – фискальная и стимулирующая. Раскрыты теоретические основы экологических налогов, их виды и экономические механизмы. На примере Узбекистана изучено современное состояние системы экологических налогов, их доля в бюджетных доходах и участие в финансировании зеленых проектов.



Ключевые слова: зеленая экономика, экологические налоги, фискальная функция, стимулирующая функция, финансирование, углеродный налог, загрязнение окружающей среды, "зеленый" бюджет, Узбекистан.

Abstract: This article analyzes the role of environmental taxes in financing the green economy and their two important functions - fiscal and incentive. The theoretical foundations of environmental taxes, their types and economic mechanisms are revealed. On the example of Uzbekistan, the current state of the environmental tax system, their share in budget revenues and participation in financing green projects are studied. .

Keywords: green economy, environmental taxes, fiscal function, incentive function, financing, carbon tax, environmental pollution, "green" budget, Uzbekistan.

Hozirgi kunda global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tobora kamayib borishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi butun dunyo oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ko'plab davlatlar "yashil" iqtisodiyotga o'tishni o'zlarining strategik yo'nalishi sifatida belgilamoqda.

Bu jarayonda ekologik soliqlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular ikkita asosiy vazifani bajaradi. Bir tomondan, ekologik soliqlar korxona va tashkilotlarni atrof-muhitni ifloslantirishni kamaytirishga, chiqindilarni qayta ishlashga va tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga undaydi. Bu ularning rag'batlantiruvchi funksiyasni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, ekologik soliqlar davlat budjetiga qo'shimcha daromadlar keltiradi va bu mablag'lar keyinchalik yashil loyihalarni, masalan, quyosh elektr stansiyalari qurilishi, chiqindilarni qayta ishlash zavodlari barpo etish kabi maqsadlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin. Bu esa ularning fiskal funksiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston ham bu borada chetda qolgani yo'q. So'nggi yillarda mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha jiddiy islohotlar amalga



oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019—2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi qarori bu boradagi davlat siyosatining asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu strategiyada energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish, chiqindilarni qisqartirish va qayta ishlash kabi muhim maqsadlar belgilangan[1]. Bu maqsadlarga erishish uchun ekologik soliqlar tizimini takomillashtirish, ularning rag'batlantiruvchi va fiskal funksiyalaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik soliqlar masalasi bilan xorijlik olimlar uzoq yillardan beri shug'ullanib kelishadi. Ingliz iqtisodchisi Artur Pigu XX asr boshlarida atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda soliqlardan foydalanish g'oyasini ilgari surgan. Keyinchalik Baumol va Oates, Pearce kabi olimlar bu nazariyani yanada rivojlantirishgan. "Qo'sh dividend" gipotezasiga ko'ra, ekologik soliqlar bir vaqtning o'zida ham ekologik vaziyatni yaxshilashga, ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ekologik soliqlar nazariyasining asoschisi ingliz iqtisodchisi Artur Pigu hisoblanadi. U 1920-yilda nashr etilgan "Farovonlik iqtisodiyoti" kitobida birinchi marta "tashqi ta'sirlar" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan[2]. Pigu nazariyasiga ko'ra, ishlab chiqarish faoliyati natijasida yuzaga keladigan salbiy tashqi ta'sirlar (masalan, zavodlarning atmosferaga chiqarayotgan tutuni aholi salomatligiga zarar yetkazishi) bozor mexanizmi orqali o'z-o'zidan tartibga solinmaydi. Chunki ifloslantiruvchi korxona o'z faoliyati natijasida jamiyatga yetkazgan zararni o'z xarajatlarida hisobga olmaydi. Shu sababli davlat bu jarayonga aralashib, maxsus soliqlar joriy etishi kerak. Bunday soliqlar keyinchalik "Pigu solig'i" deb atala boshlagan[3]. Bu soliq ifloslantiruvchi korxonaning xususiy xarajatlarini ijtimoiy xarajatlar darajasiga yetkazish orqali bozor muvaffaqiyatsizligini bartaraf etishga xizmat qiladi.



Keyinchalik ekologik soliqlar nazariyasi yanada rivojlantirildi. Baumol va Oates 1988-yilda nashr etilgan "Ekologik siyosat nazariyasi" kitobida ekologik standartlar va soliqlar o'rtasidagi munosabatni chuqur tahlil qilishgan. Ularning fikricha, ekologik soliqlar ifloslantiruvchilarni texnologiyalarini takomillashtirishga undash orqali uzoq muddatli istiqbolda yanada samarali hisoblanadi. Pearce esa 1991-yilda "qo'sh dividend" gipotezasini ilgari surgan. Bu gipotezaga ko'ra, ekologik soliqlar ikki tomonlama foyda keltiradi: birinchidan, ular atrof-muhit ifloslanishini kamaytiradi (ekologik dividend), ikkinchidan, ular hisobiga tushgan mablag'lar boshqa soliqlarni (masalan, daromad solig'ini) kamaytirishga yo'naltirilishi mumkin, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Goulder 1995-yilda "qo'sh dividend" gipotezasini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Uning xulosasiga ko'ra, ikkinchi dividendning amalga oshishi ko'p jihatdan soliq tizimining tuzilishi va iqtisodiyotning xususiyatlariga bog'liq. Ba'zi hollarda ekologik soliqlar boshqa soliqlarning salbiy ta'sirini kuchaytirishi ham mumkin. Shuning uchun har bir mamlakat o'z sharoitidan kelib chiqib, ekologik soliqlar tizimini puxta loyihalashi kerak.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik soliqlar keng qo'llaniladi. Yevropaning rasmiy ma'lumotlariga qaraganda, 2023-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlarida ekologik soliqlardan tushgan daromadlar o'rtacha YaIMning 2,4 foizini tashkil etgan[4]. Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya va Niderlandiya kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori. Andersen va Ekins 2019-yilda chop etilgan tadqiqotlarida Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan ekologik soliq islohotlarining natijalarini tahlil qilishgan. Uglerod solig'i ekologik soliqlarning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Nordxaus o'zining iqlim o'zgarishi iqtisodiyotiga oid ishlarida uglerod solig'ining samaradorligini baholashning nazariy asoslarini yaratgan. Metcalf va Weisbach 2022-yilgi tadqiqotlarida AQSHda uglerod solig'ini joriy etishning mumkin bo'lgan iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishgan. Ba'zi iqtisodchi olimlar 2021-yilda 25 ta



rivojlanayotgan mamlakatda ekologik soliqlarning CO₂ emissiyasiga ta'sirini o'rganishgan va ularning statistik jihatdan ahamiyatli salbiy ta'siri borligini aniqlashgan[5].

MDH olimlaridan Bobylev 2020-yilda nashr etilgan kitobida Rossiya Federatsiyasida ekologik soliqlar tizimi va ularning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilgan. Porfiryev 2021-yilgi tadqiqotida ekologik soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish yo'llarini o'rganib, soliq stavkalarini differentsiatsiyalash va imtiyozlar tizimini yaxshilash zarurligini asoslab bergan. O'zbekistonlik iqtisodchilardan Jo'rayev 2022-yilda respublikamizda ekologik soliqlar tizimining hozirgi ahvoli haqida maqola e'lon qilgan. Qosimov va boshqalar 2023-yilda ekologik soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasini o'rganishgan.

O'zbekiston Respublikasida ekologik soliqlar tizimi asosan ikki yo'nalishda shakllangan bo'lib, birinchi yo'nalish tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqlarni, ikkinchi yo'nalish esa atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lanadigan kompensatsion to'lovlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2023-yil yakunlari bo'yicha e'lon qilgan rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha 14 200 dan ortiq korxona va tashkilotlar ekologik to'lovlar va soliqlar bo'yicha hisobot taqdim etgan. Shulardan 8 700 tasi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari, 5 200 tasi atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik uchun to'lovchilar, qolganlari esa boshqa turdagi ekologik to'lovlarni amalga oshiruvchi sub'ektlar hisoblanadi. 2023-yilda ekologik to'lovlar va soliqlarning umumiy summasi 1,8 trillion so'mni tashkil etgan. Quyidagi 1-jadvalda 2022-2024-yillar davomida O'zbekistonda ekologik soliqlar va to'lovlarning turlari bo'yicha tushumlari dinamikasi keltirilgan.



1-jadval.

O'zbekistonda 2022-2024-yillar kesimida ekologiyaga aloqador soliqlar va to'lovlarning turlari bo'yicha budjetga tushumlar (milliard so'mda)*

Ekologik soliq va to'lovlar turlari	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024/2022 o'zgarish, %
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	624,3	702,8	756,4	+21,2
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	412,7	468,3	504,6	+22,3
Atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik uchun to'lov	152,4	166,9	187,2	+22,8
Chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lov	86,5	98,2	112,3	+29,8
Suv ob'ektlariga ifloslantiruvchi moddalar tashlaganlik uchun to'lov	34,2	38,6	42,1	+23,1
Biologik resurslardan foydalanganlik uchun to'lov	12,8	14,3	15,9	+24,2
JAMI:	1 322,9	1 489,1	1 618,5	+22,3

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022-2024-yillar davomida barcha turdagi ekologik to'lovlar bo'yicha tushumlarning barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. 2024-yilda ekologik to'lovlar va soliqlarning umumiy tushumi 1 618,5 milliard so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 22,3 foizga oshgan. Eng yuqori o'sish sur'ati chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lovlarda kuzatilgan (29,8 foiz), bu esa chiqindilar hajmining ortishi va soliq ma'murchiligining yaxshilangani bilan izohlanadi. Shuningdek, atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik uchun to'lovlarning 22,8 foizga o'sgani sanoat ishlab chiqarishining ortishi va monitoring tizimining takomillashganidan dalolat beradi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq umumiy ekologik tushumlarning eng katta



ulushini (46,7 foiz) tashkil etgan bo'lib, bu O'zbekiston iqtisodiyotida suv resurslarining strategik ahamiyati va ulardan foydalanish hajmining yuqoriligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda respublika bo'yicha jami 51 milliard kub metr suv resurslaridan foydalanilgan, shundan 87 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyojlari, 9 foizi sanoat va 4 foizi aholi ichimlik suvi ta'minotiga sarflangan. Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv resurslaridan foydalanganlik solig'i stavkalari boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha past darajada belgilangan bo'lib, bu sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan. Ammo Orol dengizi havzasidagi ekologik tanglik va suv resurslarining cheklanganligini hisobga oladigan bo'lsak, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida soliq stavkalarini qayta ko'rib chiqish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik uchun to'lovlar tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan olib borilgan monitoring natijalariga ko'ra, 2024-yilda respublika bo'yicha statsionar manbalardan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy hajmi 948 ming tonnani tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval.

2023-yilda O'zbekistonda atmosferaga chiqarilgan asosiy ifloslantiruvchi moddalar hajmi va undirilgan to'lovlar*

Ifloslantiruvchi moddalar turi	Chiqarilgan hajm, tonna	Umumiy hajmdagi ulushi, %	Undirilgan to'lov, mln so'm	O'rtacha stavka, so'm/tonna
Qattiq moddalar	407 640	43,0	65 223	160 000
Oltingugurt dioksidi (SO ₂)	293 880	31,0	47 021	160 000
Azot oksidlari (NO _x)	170 640	18,0	34 128	200 000
Uglerod oksidi (CO)	75 840	8,0	11 376	150 000
JAMI:	948 000	100	157 748	-



*O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalarning eng katta ulushini qattiq moddalar (43 foiz) va oltingugurt dioksidi (31 foiz) tashkil etgan. Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar uchun undirilgan to'lovlar miqdori 2023-yilda 157,7 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 12 foizga oshgan. Ammo to'lov stavkalari hali ham yetkazilayotgan real iqtisodiy zararining taxminan 18-20 foizini qoplaydi, xolos. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjet-soliq tadqiqotlari instituti olimlari tomonidan o'tkazilgan hisob-kitoblarga ko'ra, masalan, atmosferaga bir tonna oltingugurt dioksidi chiqarilganlik uchun undiriladigan to'lov o'rtacha 160 000 so'mni tashkil etsa, bu zararni bartaraf etish uchun kamida 800 000 so'm mablag' talab etiladi[7]. Bu esa korxonalarni ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish bo'yicha texnologik yangilanishlarga investitsiya kiritishdan ko'ra, mavjud to'lovlarni to'lashni davom ettirishga undaydi.

Quyida O'zbekistonda 2018-2024-yillar mobaynida ekologik soliqlarning budjetga tushumi va ularning budjet daromadlaridagi ulushi aks ettirilgan (1-jadval).

3-jadval.

O'zbekistonda ekologiyaga aloqador soliqlar va to'lovlarning budjet daromadlaridagi ulushi*

Ekologik soliq va to'lov turlari	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O'zgarish
Jami ekologik soliqlar va to'lovlar (mlrd so'm)	640,0	725,5	773,8	861,1	964,2	1 102,8	1 260,1	1,97 baravar
Davlat budjeti daromadlari (mlrd so'm)	78 456	92 345	98 765	112 678	134 567	156 789	178 456	2,3 baravar



Ekologik soliqlarning budget daromadlaridagi ulushi (%)	0,82	0,79	0,78	0,76	0,72	0,70	0,71	-0,11 foiz punkti
Yashil loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar (mlrd so'm)	98,4	112,5	124,6	145,7	167,8	189,6	234,5	2,4 baravar
Ekologik soliqlarning yashil loyihalarni moliyalashtirishdagi ulushi (%)	15,4	15,5	16,1	16,9	17,4	17,2	18,6	+3,2 foiz punkti

*O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Statistika agentligining rasmiy manbalaridan olingan.

O'zbekistonda 2018-2024-yillar oralig'ida ekologik soliqlardan tushgan tushumlardan ko'rinib turibdiki, ekologik soliqlarning umumiy hajmi 2018-yildagi 640 milliard so'mdan 2024-yilda 1 260 milliard so'mga yetgan. Bundan kelib chiqadiki, o'tgan 7 yil ichida ekologik soliqlar tushumi qariyb 2 barobar oshgan. Ammo ekologik soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijobiy holat qayd etilmagan. 2018-yilda bu ko'rsatkich 0,82 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 0,71 foizga tushib ketgan. Ya'ni, ekologik soliqlar tushumi oshgan bo'lsa-da, ularning budjetdagi salmog'i pasaygan. Buning sababi shundaki, boshqa soliq turlari bo'yicha tushumlar ancha tez sur'atlar bilan o'sgan[6].

Taqqoslash uchun aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda ekologik soliqlarning budget daromadlaridagi ulushi 5-7 foiz atrofida. Ijobiy tomoni shundaki, ekologik soliqlardan tushgan mablag'larning yashil loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan qismi oshib bormoqda. 2018-yilda bu maqsadlarga 98,4 milliard so'm ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 234,5 milliard so'mga yetgan, bu esa 2,4 barobar ko'p degani. Ekologik soliqlarning yashil loyihalarni moliyalashtirishdagi ulushi ham 2018-yildagi 15,4 foizdan 2024-yilda 18,6 foizga oshgan. Bu yaxshi



tendensiya bo'lib, kelajakda bu ko'rsatkichni yanada oshirish maqsad sifatida davlat siyosatiga kiritilgan[7].

O'zbekistonda ekologik soliqlar tizimining bir qator kamchiliklari bor.

Birinchidan, soliq stavkalari nisbatan past. Ko'p hollarda amaldagi stavkalar ifloslantiruvchi faoliyat natijasida yetkazilayotgan real zararni qoplamaydi va korxonalarni ekologik toza texnologiyalarni joriy qilishga yetarlicha undamaydi.

Ikkinchidan, soliq imtiyozlari tizimi biroz murakkab, unda ekologik toza texnologiyalar ishlatayotgan korxonalar uchun imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ulardan foydalanish jarayoni ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, ekologik soliqlardan tushgan mablag'lar ko'pincha maqsadli ishlatilmaydi. Bu pullar umumiy budjet daromadlari bilan qo'shilib ketadi va atrof-muhitni muhofaza qilishga yetarlicha ajratilmaydi.

Ekologik soliqlar tizimini takomillashtirish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiqdir:

- ekologik soliq stavkalarini bosqichma-bosqich oshirib borish va ularni inflyatsiya darajasiga moslab turish kerak. Bu soliqlarning rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytiradi va budjet daromadlarini oshiradi. Stavkalarni belgilashda ifloslantiruvchi moddalarning real zararini hisobga olish va xorijiy tajribalarga tayanish lozim;

- ekologik soliqlar tarkibini kengaytirish, yangi turlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Masalan, tabiatga jiddiy zarar yetkazadigan plastik mahsulotlarga alohida soliq belgilash, avtotransport vositalariga ekologik to'lovlarni joriy etish kabi choralar ko'rish mumkin;

- ekologik soliqlardan tushgan mablag'larning bir qismini maxsus jamg'armalarga yo'naltirish va bu pullarni faqat yashil loyihalarni moliyalashtirishga ishlatish kerak. Bu "yashil" budjetlashtirish tamoyilini joriy qilish orqali amalga oshirilishi mumkin;



- ekologik soliqlar bo'yicha imtiyozlar tizimini soddalashtirish va kengaytirish lozim. Ekologik toza texnologiyalar joriy qilgan, chiqindilarni kamaytirgan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini ko'paytirish va ulardan foydalanishni osonlashtirish kerak.

Rivojlangan mamlakatlarda ekologik soliqlar tizimi ancha ilg'or va samarali ishlaydi. Ayniqsa, Skandinaviya davlatlari – Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya bu borada yetakchi hisoblanadi. Shvetsiyada uglerod solig'i 1991-yilda joriy qilingan va hozirgi kunda stavkasi 1 tonna CO₂ uchun 120 yevroni tashkil qiladi. Bu juda yuqori ko'rsatkich. Shvetsiyada uglerod solig'idan tushgan mablag'lar asosan boshqa soliqlarni, xususan, daromad solig'ini kamaytirishga yo'naltiriladi. Natijada Shvetsiya iqtisodiy o'sishni saqlab qolgan holda CO₂ emissiyasini sezilarli darajada kamaytirishga erishgan. Daniyada ekologik soliqlar tizimi juda keng qamrovli bo'lib, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 4 foizdan oshadi. Bu pullar asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish dasturlariga sarflanadi.

Germaniyada ekologik soliq islohoti 1999-yilda boshlangan va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Asosiy e'tibor energiya soliqlariga qaratilgan bo'lib, soliq stavkalari har yili oshirib borilgan. Germaniya Iqtisodiy tadqiqotlar instituti (DIW Berlin) ma'lumotlariga ko'ra, bu islohot tufayli 2000-2010-yillar oralig'ida mamlakatda energiya iste'moli 7 foizga kamaygan va 250 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilgan. Germaniya Federal statistika idorasining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ekologik soliqlardan tushgan tushumlar umumiy soliq tushumlarining 5,7 foizini tashkil etgan. Germaniya tajribasining O'zbekiston uchun ahamiyati shundaki, ekologik soliqlar islohotini o'tkazishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga rioya qilish, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini oldindan ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Chunki energiya resurslariga soliqlarning oshishi muqarrar ravishda energiya narxlarining oshishiga



olib keladi va bu aholining barcha qatlamlariga, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[8].

Buyuk Britaniyada 2001-yilda "iqlim o'zgarishi solig'i" joriy etilgan. Bu soliq sanoat, tijorat va davlat sektorida energiya iste'moliga solinadi. Shu bilan birga, energiya tejovchi texnologiyalar joriy qilgan korxonalar uchun maxsus imtiyozlar tizimi ham ishlab chiqilgan.

Frantsiyada uglerod solig'i 2014-yilda joriy qilingan va stavkasi bosqichma-bosqich oshirib borilgan. Soliqdan tushgan pullar asosan "ekologik o'tish" dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Fransiya Ekologik o'tish agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ushbu soliqdan tushgan mablag'lar 8,4 milliard yevroni tashkil etgan va ularning asosiy qismi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Aytish joizki, 2018 yilda Frantsiyada uglerod solig'ining keskin oshirilishi "sariq jiletliklar" noroziliklariga sabab bo'lgan edi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, ekologik soliq islohotlarini o'tkazishda ijtimoiy omillarni ham hisobga olish, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish zarur.

Janubiy Koreya tajribasi O'zbekiston uchun alohida qiziqish uyg'otadi, chunki bu davlat qisqa tarixiy davr ichida ekologik soliqlar tizimini tubdan isloh qilishga muvaffaq bo'lgan. Janubiy Koreya Atrof-muhit vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda qabul qilingan "Yashil o'sish" milliy strategiyasi doirasida ekologik soliqlarning 12 xil turi joriy etilgan va ularning umumiy soliq tushumlaridagi ulushi 3,2 foizdan 5,8 foizga oshirilgan. Koreya Iqtisodiy tadqiqotlar institutining ma'lumotlariga ko'ra, ayniqsa, transport vositalariga ekologik soliqni joriy etish orqali mamlakatda yoqilg'i samaradorligi 23 foizga oshgan va atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmi sezilarli darajada kamaygan[8]. 2022-yilda Janubiy Koreyada ekologik toza transport vositalari (elektromobillar, vodorod avtomobillari) ulushi 8,3 foizga yetgan.



Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Xitoy tajribasi diqqatga sazovor. Xitoy Xalq Respublikasida 2018-yilda joriy etilgan ekologik soliq tizimi dastlab 10 ta ifloslantiruvchi moddani qamrab olgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ro'yxat 44 ta moddaga yetkazilgan. Bu soliq atmosferaga, suv havzalariga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, chiqindilar va shovqin ifloslanishiga solinadi. Xitoy Davlat soliq boshqarmasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ekologik soliqlardan tushgan tushumlar 32 milliard yuanni (taxminan 4,5 milliard AQSh dollari) tashkil etgan va bu mablag'larning 85 foizi hududlarning ekologik dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Xitoy Ekologiya va atrof-muhit vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2018-2022-yillar davomida ekologik soliqlar tufayli atmosferaga chiqarilgan oltingugurt dioksidi hajmi 28 foizga, azot oksidlari hajmi esa 19 foizga kamaygan[8]. Soliq stavkalari ifloslantiruvchi moddalarning turiga va mintaqaga qarab farqlanadi. Soliqdan tushgan pullar mahalliy budjetlarga yo'naltiriladi va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlariga sarflanadi.

Hindistonda 2010-yilda "yashil soliq" joriy qilingan bo'lib, u eski va ifloslantiruvchi transport vositalariga solinadi. Bu soliq hisobiga tushgan pullar atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlariga yo'naltiriladi.

Xorijiy tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston uchun quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Birinchidan, ekologik soliq islohotlarini birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich, uzoq muddatli strategiya asosida amalga oshirish kerak. Soliq stavkalarini keskin oshirish iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi va aholi noroziligiga sabab bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ekologik soliqlardan tushgan pullarning bir qismini maqsadli ravishda yashil loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish va bu jarayonni shaffof qilish lozim. Uchinchidan, ekologik soliqlarni boshqa iqtisodiy vositalar bilan birgalikda qo'llash samaradorlikni oshiradi. To'rtinchidan, ekologik soliq islohotlarida ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilish, ya'ni soliq yukining asosiy qismi aholining kam ta'minlangan qatlamlariga tushmasligiga e'tibor berish kerak.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: "Adolat", 2020-yil. 568 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019—2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2019 yil, 10-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 2018-2024 yillardagi davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar. – Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti, 2019-2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. 2018-2024 yillardagi soliq tushumlari to'g'risidagi hisobotlar. – Toshkent: Soliq qo'mitasi nashriyoti, 2019-2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston raqamlarda: 2024 yil statistik to'plami. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2025. 324 b.
6. Jo'rayev A.S. O'zbekistonda ekologik soliqlar tizimi: holati va rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiyot va moliya. – 2022. – №4. – B. 34-42.
7. Qosimov A.A., Karimov I.X., Usmonov B.B. Ekologik soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri: O'zbekiston misolida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2023. – №2. – B. 45-56.
8. OECD. Environmental Taxation: A Guide for Policy Makers. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 178 p.
9. Bobylev S.N. Ekologik soliqlar va yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Moskva: Ekonomika, 2020. – 324 b.
10. Porfiryev B.N. Ekologik soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish yo'llari. – Moskva: Nauka, 2021. – 278 b.